

## ER-XOTIN MUNOSABATLARINI MUVOFIQLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

*Narmuradova Rayhon Uktamovna*

*Navoiy innovatsiyalar universiteti, o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston psixologlarining o'zbek oilasining hayoti, undagi o'zaro munosabatlar, uning urf-odatlarini, an'analari va qadriyatlarini, turmush tarzi, madaniyati, tarbiyaviy muhiti, farzand kamoloti, erkak bilan ayol munosabati, shaxslararo munosabatning o'ziga xosligi va oila barqarorligining ijtimoiy-psixologik mezonlariga bag'ishlangan ilmiy asarlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** oila, nikoh, mehr-muhabbat, xudbinlik, rashk, ishonchsizlik, individual, munosabat.

Oilaviy turmush bilan jamiyat taraqqiyotining doimiy mushtarakligi tufayli jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida ham oilaviy muammolar uning ilg'or vakillari diqqat-e'tiborida bo'lgan. Oilaviy hayot jamiyat taraqqiyoti va farzandlarning kamoloti uchun shu qadar muhimki, shu bois uni biror soniya ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Oilada er va xotin munosabatlari vaqt o'tishi bilan oqilona hamkorlik va do'stlik, qon-qarindoshlik munosabatlariga aylanib boradi. Ko'pchilik nikohlarni baxtli ham, baxtsiz ham deb atash mushkul, chunki ularda er-xotinlarning bir-birlarini sekin-asta tarbiyalab borishlari va taqdir taqozosi bilan bora-bora munosabatlar chuqurlashib, tushunish hissi va do'stona munosabatlar sayqallashib boradi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Oilaviy hayot psixologiyasi, oila-nikoh munosabatlari, oiladagi o'zaro munosabatlar, undagi ziddiyatlar, ajralishlar va uning oqibatlarini keyingi yillarda psixologiya fanining keng tadqiqot ob'ektiga aylanib bormoqda. Bu sohada psixolog olimlardan G'.B.Shoumarov, Y.A.Morshinina, E.G'oziev, V.M.Karimova, M.G.Davletshin, N.A.Sog'inov, S.A.Oxunjonova, A.Shojalilov, T.M.Adizova, E.Usmonov, X.Karimov, Sh.Sh.Jo'raeva, R.S.Samarov, O.Shamieva, N.Salaeva, F.R.Ro'ziqulov, M.Fayzieva va boshqalar olib borayotgan ilmiy tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir.

### TADVIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Respublikamizning yetakchi psixolog olimlaridan G'.B.Shoumarov [1] o'z tadqiqotlarini natijalariga tayanib, oilaning mustahkam bo'lishi, er-xotinning baxtiyor hayot kechirishlari va tinch-totuv yashashlarida ularning o'zaro qovushishi muhim rol o'ynaydi, deb ko'rsatadi. U o'zaro qovushuvlarning shartli ravishda 3 tarkibiy qismga bo'linishini e'tirof etadi. Ular: 1) biologik qovushuv; 2) psixologik qovushuv; 3) sotsial qovushuv.

Kelin-kuyovlarda mehr-muhabbat xudbinlikdan ustun bo'lsa, har qanday tafovut, kelishmovchilik oilaviy turmush uchun xavf tug'dirmaydi. Shuningdek, psixologik qovushuvda markaziy o'rinni shaxs psixologiyasining tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan fe'l-atvor va xarakter egallashi alohida ta'kidlanadi.

Muallifning fikricha, oilaviy-ijtimoiy tasavvurlar murakkab va ko'p komponentli psixologik tizimlar bo'lib, ularning tarkibiga oilaning umumiy qadriyatlari, shaxslararo munosabatlarga xos tasavvurlar, erkak va ayol fazilatlari, ularning oilaviy munosabatlardagi o'rni va ahamiyati to'g'risidagi, oilaviy rollar va ularni amalga oshiruvchi ijtimoiy ustanovkalar, reproduktiv tasavvurlar va boshqa ijtimoiy-psixologik tushunchalar kiradi.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Mamlakatimizda oila va nikoh munosabatlari, oilaviy turmushning turli jabhalariga xos muammolar, falsafa, tarix, etnografiya, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya, huquq fan sohalarining vakillari tomonidan muayyan darajada o'rganilayotgan bo'lsa-da, lekin oila hayotiga xos ba'zi bir muammolar hali ham o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Jumladan, psixologiya fanida oilada er-xotin munosabatlarini muvofiqlashtirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari aynan o'zbek milliy-madaniy muhiti shart-sharoitlari ta'siri nuqtai nazaridan o'rganilmagan. Shu maqsadda maxsus ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar o'tkazish va uning yutuqlarini kechiktirmay amalga oshirish zarur.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Shoumarov G'.B., Shoumarov Sh.B. Muhabbat va oila. - T.: «Ibn Sino», 2014.
2. Karimova V.M. O'zbek yoshlarida oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllari nishi: Psixol. fanl. dokt. ... diss. - Farg'ona, 2014. -322-b.
3. Niyozmetova G. O'zbek oilalarida er-xotinlik munosabatlari dinamikasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Psixolog. fan. nomz. ...dis. avtoref. – T.: TDPU, 2010. -24-b.
4. Eshmurodov, O. (2022). ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ.
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)